

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 316.34:1:330.34

KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI VA UNI O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ БЕДНОСТИ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕЁ ИЗУЧЕНИЯ****THE SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF POVERTY AND THE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ITS STUDY****Baratova Madina Xasanovna** 

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini hamda uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Kambag'allik nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy, madaniy va axloqiy inqiroz belgisi sifatida yoritiladi. Muallif kambag'allikning inson qadri, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari bilan uzviy aloqadorligini falsafiy tahlil asosida ochib beradi. Shuningdek, maqolada kambag'allikni o'rganishda sotsiologik, antropologik va aksiologik yondashuvlarning metodologik ahamiyati yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются социально-философские аспекты проблемы бедности и её теоретико-методологические основы. Бедность анализируется не только как экономическое явление, но и как проявление духовного, культурного и нравственного кризиса. Автор раскрывает философскую взаимосвязь бедности с ценностью человека, принципами социальной справедливости и равенства. Также исследуется методологическое значение социологических, антропологических и аксиологических подходов в изучении феномена бедности.

Abstract

This article analyzes the socio-philosophical interpretation of poverty and its theoretical and methodological foundations. Poverty is examined not only as an economic issue but also as a manifestation of spiritual, cultural, and moral crisis. The author philosophically explores the relationship between poverty, human dignity, social justice, and equality. Furthermore, the methodological significance of sociological, anthropological, and axiological approaches in studying the phenomenon of poverty is discussed.

Kalit so'zlar: kambag'allik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, inson qadri, adolat, tenglik, ma'naviyat, metodologiya, ijtimoiy tengsizlik.

Ключевые слова: бедность, социально-философский анализ, ценность человека, справедливость, равенство, духовность, методология, социальное неравенство.

Key words: poverty, socio-philosophical analysis, human dignity, justice, equality, spirituality, methodology, social inequality.

KIRISH

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida kambag'allik muammosi jamiyat taraqqiyotining murakkab va ziddiyatli jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. U nafaqat iqtisodiy hodisa, balki inson hayoti, qadri, erkinligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Kambag'allikning ildizlari jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlik, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi, ijtimoiy institutlarning zaiflashuvi hamda insonning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqara olmasligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, kambag'allikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'lchash emas, balki uni inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tizimi sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv, axborotlashuv va postindustrial jamiyatga o'tish kambag'allik muammosini yangi shakllarda yuzaga chiqarmoqda. Moddiy resurslarning notekis taqsimlanishi, imkoniyatlar tengsizligi va ma'naviy-madaniy tafovutlar kambag'allikni nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy inqiroz sifatida ko'rsatadi. Shu bois, kambag'allikni falsafiy tahlil qilish inson qadri, axloqiy mas'uliyat, tenglik va erkinlik mezonlari orqali uning mohiyatini anglash imkonini beradi.

Kambag'allik insonning moddiy resurslar yetishmasligidan tashqari o'zligini, imkoniyatlarini amalga oshirishdagi to'siqlarning ifodasidir. Sotsiologik, aksiologik, antropologik va ekzistensial yondashuvlar kambag'allikni jamiyatning ma'naviy tuzilmasi va ijtimoiy adolat mezonlari asosida anglashga yordam beradi. Shu jihatdan kambag'allikni o'rganish insonning o'z mohiyatini anglash, ijtimoiy adolatni tiklash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash jarayoni sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kambag'allik tushunchasiga metodologik yondashuvlar tahlili chuqur va izchil izlanishlarni talab qiladi. Chunki, uzoq davrni o'z ichiga olgan, nazariy qarashlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadigan, turli xalqlar, etnoslar, guruhlar, dinlardagi o'ziga xos qadriyatlar, tabiat, iqlim ta'siri, ratsional, emotsional va sintetik tafakkur, Sharq va G'arb mutafakkirlarining yondashuvlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, insoniyat taraqqiyoti davomida har bir jamiyat transformatsion jarayonlar orqali rivojlanib, bu o'zgarishlar insonlarning turmush sharoiti va ijtimoiy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatib kelgan. Ijtimoiy hayotdagi islohotlar, mulkiy munosabatlarning o'zgarishi, mehnat va ishlab chiqarish shakllarining yangilanishi kambag'allik muammosining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida inson qadri va mehnatga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarib, moddiy manfaatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan. Natijada jamiyatning axloqiy muvozanati zaiflashib, insoniy qadriyatlar pul ruhi bilan siqib chiqarilgan jarayon kuzatilmoqda.

Moddiy manfaatlarining kuchayishi faqat iqtisodiy sohani emas, balki ma'naviyat, axloq, adolat va ijtimoiy tenglik tizimini ham o'z ta'siri ostiga oldi. Pul va iste'molchilik ruhi jamiyat ongiga chuqur singib, mehnatsevarlik, halollik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar ikkinchi darajali qadriyatlarga aylanib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kambag'allik faqat iqtisodiy muammo sifatida emas, balki ma'naviy va axloqiy inqirozning falsafiy ifodasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Kambag'allik insonning o'zini anglash, ijtimoiy tizimda o'z o'rnini topish va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Insonning rivojlanishi, mehnat faoliyati va ijodiy salohiyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sharoitlarga ham bog'liq. Inson kapitalining yuksalishi kambag'allik darajasini pasaytiradi, ammo shaxs tashabbusi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar yetishmasa, kambag'allik chuqurlashadi.

Oila kambag'allikka qarshi muhim ijtimoiy institut bo'lib, mehnatsevarlik, halollik va mas'uliyatni shakllantiradi. Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tafovutlar ortishi kambag'allikni dolzarb masalaga aylantirdi, shuning uchun uni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Kambag'allik iqtisodiy tanazzul, ma'naviy qashshoqlik va ijtimoiy ishonchsizlikni kuchaytiradi; ekstremal darajada u shaxsning ijtimoiy mavjudlik sifatini yo'qotish xavfini tug'diradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, kambag'allikni o'rganishda metod va metodologiya muhim ahamiyatga ega. Sotsiologik, antropologik, aksiologik va iqtisodiy-falsafiy yondashuvlar kambag'allikni nafaqat iqtisodiy hodisa, balki ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy ong va ma'naviy yangilanish bilan bog'liq kompleks fenomen sifatida anglash imkonini beradi.

Tarixiy jarayonlarda mulkka egalik va tadbirkorlik kambag'allik bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Qadimda mulk jamoa boyligi sifatida tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan. Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan iqtisodiy tabaqalanish yuzaga keldi. Markaziy Osiyo tarixida halol mehnat, dehqonchilik va savdo kambag'allikdan xalos bo'lishning asosiy yo'li sifatida talqin qilingan.

Islom ta'limotida ham kambag'allik masalasiga e'tibor qaratilgan; Qur'onda halol mehnat, tejamkorlik, adolat va saxovatga chaqiriladi, mulk vaqtinchalik vosita sifatida ko'riladi. Shu nuqtayi nazardan kambag'allikni kamaytirish nafaqat moddiy, balki ma'naviy mas'uliyatni oshirish bilan bog'liq.

Kambag'allikni ijtimoiy-falsafiy kontekstda o'rganish inson qadri, ijtimoiy adolat va ma'naviy yangilanish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning eng samarali yechimi shaxsning o'z qadrini anglashini, halol mehnatni qadrlashini va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishni ta'minlashdir. Mutafakkir P.J. Prudon kapitalizm rivojlanishi va ochko'zlik jamiyatning tabaqalanishini kuchaytirib, kambag'allikni g'ayritabiiy darajaga yetkazganini ta'kidlagan.

Mutafakkir, klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri A.Smit "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish" asarida mutlaq va nisbiy qashshoqlikni ajratib ko'rsatdi. Mutlaq qashshoqlik,

uning ta'kidlashicha, ishchi oilani hayotning takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan darajada ta'minlay olmasa. Nisbiy ma'noda, qashshoqlik bu oilaning hatto past darajadagi ehtiyojlarini ham munosib qamray olmasligini aks ettiradi. Jamiyatda kambag'allikning qisqarishi bevosita iqtisodiy rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq. Barqaror iqtisodiy o'sish jamiyatning barcha sinflari va qatlamlari turmush darajasini oshiradi.

Nemis olimi K.Marks Prudonning "Qashshoqlik falsafasi" ni tanqid qilar ekan, uni sanoat kapitalizmi rivojlangan sari ozchilikning boyligi oshib boradi, qolgan ko'pchilikning kambag'allik va qashshoqligi kengayib boradi, degan ma'noda qo'llab-quvvatlagan. Ishlab chiqarishni texnik jihozlashdagi taraqqiyot ishsizlikka, qashshoqlashgan "ortiqcha aholi"ning shakllanishiga olib keladi. Biroq kapitalizmning real tarixiy rivojlanishi K.Marksning kambag'al va qashshoqlanish nazariyasini tasdiqlamagan.

Ilmiy metodologiya fan to'g'risidagi tahliliy ta'limot bo'lib, yangi ilmiy kashfiyotlar qilishdagi ahamiyati ulkan. U muayyan fan, mavzuga yondoshishda ilmiy va ijtimoiy mo'ljal beradi. Oldida turgan konkret va dolzarb vazifalarni, maqsadlarni, ularga eltuvchi yo'llarni, vositalarni aniqlab olishga ko'maklashadi. Kambag'allikni qisqartirishning umummetodologik asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mavzuga oid asarlari, nutqlari xizmat qildi.

Shu bilan birga, kambag'allik muammosi, uning ijtimoiy illatlarni keltirib chiqaruvchi omil ekanligi barcha davrlarda dolzarb ilmiy muammo bo'lib kelgan. Qadimgi Yunon va Rim, Xitoy, Hindiston va Movarounnahrda mutafakkirlar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan:

Birinchi guruh tadqiqotlarda shaxslararo munosabatlar etatik mezonlar asosida tahlil qilinganligini ko'rish mumkin. Bu Platon, Sitseron, Plutarx asarlarida davlatga sadoqat, respublika tizimiga fidoiylik konsepsiyasiga bo'ysundirilganligida ko'rinadi. Davlatni ijtimoiy taraqqiyotning eng yuqori natijasi va maqsadi sifatida qaraydigan yondashuv tarafdorlari iqtisodiy va ijtimoiy hayotga davlatning keng va faol ishtiroki zaruratini ta'kidlaydilar. Barcha fuqarolar uchun davlatni oliy axloqiy agentga aylantirish istagi bu yo'nalish tarafdorlarining ilmiy qarashlarini o'zida namoyon qiladi.

Ikkinchi guruh tadqiqotlar kambag'allik bilan bog'liq munosabatlarda o'zaro ahillik, sadoqat va fidoiylikning muayyan guruhlar, ijtimoiy tabaqalarga bog'liqlikda, insonning anglangan harakatlarida namoyon bo'lishini asoslashda ko'rinadi. Aristotel, Mark Avreliy, Ovidiy, Forobiy, Makiavelli va boshqalar insonning o'z ijtimoiy stratasiga bog'liqligi anglangan maqsadlilik negizida yuz berishi asoslanadi. Aristotel o'zining "Poetika" asarida jamiyatda to'g'rilik muhitini joriy etishga allohida e'tibor qaratadi va maqsad omilining shu qadar muhimligini ta'kidlab, "yaxshi maqsadi bor odamgina halol va xarakterli bo'ladi" deb aytadi.

Uchinchi guruh tadqiqotlar kambag'allikning jamiyat ichki tuzilmasiga bog'liqlik darajasiga ko'ra tavsiflanishida namoyon bo'ladi. Suqrot, Konfutsiy, Budda, Zardusht, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur ta'limotlarining negizi jamiyatdagi mavjud tabaqalararo ierarxiyaga bog'liqlikka rioya etishda namoyon bo'lishi asoslanadi. Suqrot "Kambag'al deb cho'ntagida bir chaqasi ham yo'q insonni emas, balki hayotida aniq maqsadi bo'lmagan insonni aytish mumkin", deb aytadi.

To'rtinchi guruh meritokratik tadqiqotlarda kambag'allikni diniy e'tiqod, konfessional mansublikka sadoqatdan diniy e'tiqoddan kuch olishi tavsiflanadi. Moisey, Imom Buxoriy, G'azzoliy, Moturudiy, Rumi, Bahouddin Naqshband, Gegel va boshqalar diniy asos dunyoviy voqelik shu jumladan ma'naviyatning ham harakatlantiruvchi va barqaror amal qilish poydevori deb bilardilar. Jumladan, Bahovuddin Naqshband:

"Kimki boshqalar to'g'risida qayg'uribdi – demak u o'zini o'ylabdi.

Kimki boshqalar to'g'risida qayg'urmabdi, demakki, u o'zini o'ylamabdi".

Beshinchi guruh odamlar dard-u tashvishini tushunish, hamdardlik, ko'mak berishga aqlan anglab yondashishni kambag'allikka qarshi omil deb qarashga asoslangan nazariyalardir. Kaykovus, Sa'diy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Qodiriy, Fitrat asarlarida kambag'allikka munosabatni shakllantirishda uning asosi sifatida ahillik ekanligini ta'kidlashgan. Faylasuflar, shoirlar, rassomlar, turli soha vakillari ijodida ma'naviyatni ijtimoiylashtirish muammosi turlicha tahlil qilingan.

Oldinchi guruh hissiyot, simpatiya omilini ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj negizi ekanligini asoslashga qaratiladi. Umar Xayyom, Shiller, Nisshe, Freyd, Fromm asarlarida odamlarning o'zaro yoqish yoki yoqmasligiga ko'ra birlashishlari, turli darajadagi referentlashuvi bilan asoslanadi. Falsafiy antropologiya fanida borliqning hissiy-emotsional mezonlar asosida anglash allohida, o'ziga xos yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. Bu mavzuda Sheler, Fromm, Kerkegor, Kamyularni ham ta'kidlash lozim.

FALSAFA

Yettinchi guruh tadqiqotlar insonlararo har qanday yaqinlik munosabatlarni manfaatlar asosidagi shartnomaviy birlashishdan iborat deb biluvchi ma'naviy munosabatlar barqarorligini tamoman inkor etuvchi nazariyalar tashkil etadi. Tomas Gobbs, Monteske, Uilyam Cherchel asarlarida har qanday odamlararo yaqinlik muvaqqat hodisa sifatida qaraladi. Inson-jamiat-davlat uchligi manfaatlaridan boshqa barcha tenglik munosabatlar kutilgan natijalarga olib kelmaydi deb qaraydilar.

Sakkizinchi guruh tadqiqotlar odamlarni rozi qilish kambag'allikni qisqartirish, inson kamolotning bilvosita avval insonlararo, keyin jamoalararo, provard natijada butun jamiyat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy muhitini barqarorlashuvini asoslovchi nazariya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus, Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomalari, Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 hamda 75-sessiyalaridagi ma'ruzalari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, "1+1 – bir tadbirkorga bir ishsiz yosh" dasturi, "1+10 – Bir nuroniy o'n yoshga ma'naviy murabbiy", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Hunarmandchilikni rivojlantirish" dasturlariga va boshqa tashabbuslari mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq jamiyat taraqqiylashgani bilan, jumladan industrial-sanoat jamiyati, postindustrial-sanoatdan keyingi jamiyat va iste'mol jamiyati davrida kambag'allik va qashshoqlik muammosi yo'qolmadi. Hatto yuqori rivojlangan mamlakatlarda ham an'anaviy kambag'allar qolmoqda. Ular asosan nafaqaga tayanib yashaydilar. Shu bilan bir qatorda "yangi kambag'allar" hodisasi paydo bo'ldi. Uning paydo bo'lishi zamonaviy jamiyatlarda bandlik tabiatini o'zgartirishning o'zaro bog'liq jarayonlari hamda kambag'allar va boylar o'rtasidagi eski ijtimoiy qarama-qarshilikning o'zgarishi bilan izohlanadi. Globallashuv, boylar va qashshoqlik global iqtisodiy tizimning funksiyalariga aylanadi. Boylar kambag'allar bilan yonma-yon yashaydilar va asosan ular orqali ko'plab ehtiyojlarini qondiradilar. Shu bilan birga, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik institutlarini qisqartirish jarayoni, an'anaviy ma'noda mehnat faolligining qisqarishi kuzatilmoqda. Haftada bir necha soat, qisqa muddatli shartnomalar bo'yicha ishga ommaviy o'tish jarayonlari faollashdi.

So'nggi o'n yilliklarda O'zbekistonda jamiyatning moddiy tabaqalanishi jarayoni sezilarli darajada kuchaydi. Bu holatning ildizlari 1990-yillarda amalga oshirilgan xususiyashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ayrim shaxslar hokimiyat bilan yaqin aloqalar orqali qisqa muddatda katta boylar to'plash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada, eng boy 10 foiz aholining daromadi eng kambag'al 10 foiz daromadidan bir necha baravar ortdi. Bunday iqtisodiy tafovut jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarining zaiflashishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bozor mexanizmlarini halol yo'l bilan o'zlashtirgan tadbirkorlar ham shakllanib bordi. Ammo kambag'allikka qarshi kurash uzoq vaqt mobaynida asosan pensiyalar va davlat sektoridagi ish haqlarini oshirish bilan cheklanganligi sababli, aholining muhim qatlami yashash minimumidan past darajada qolmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisi orasida bandlikning sustligi, ishlab chiqarish imkoniyatlarining cheklanganligi kambag'allikning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda.

Davlat tomonidan kambag'allikka qarshi kurashish siyosati tizimli tus ola boshladi. Xususan, 2017 yildan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'nalishida qator qonun va davlat dasturlari qabul qilindi. 2020 yilda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kambag'allikka qarshi kurashish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilli tizimi joriy etildi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, kambag'allik muammosining ildizlari nafaqat iqtisodiy tizimdagi nomutanosibliklarda, balki insonning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy adolat tamoyillariga munosabatida ham namoyon bo'ladi. Kambag'allik – bu moddiy tanqislik emas, balki ijtimoiy tengsizlik, ma'naviy nochorlik va inson qadriyatining to'liq ro'yobga chiqmasligining natijasidir.

Yangi O'zbekiston sharoitida kambag'allikka qarshi kurashish jarayoni faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki ijtimoiy adolat, halollik, korrupsiyaga muvohiqsizlik, inson qadri va ma'naviy uyg'onish tamoyillariga asoslangan falsafiy yondashuv bilan uyg'unlashgandagina samarali natija

beradi. Shu bois kambag'allikni bartaraf etish – bu iqtisodiy islohot emas, balki insonni markazga qo'ygan yangi ijtimoiy tafakkurning shakllanishidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kambag'allik muammosini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish, eng avvalo, inson mavjudotining mazmuni va uning ijtimoiy hayotdagi o'rini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Kambag'allik faqat iqtisodiy nochorlik emas, balki inson qadrlarining to'liq namoyon bo'la olmasligi, adolat va tenglik buzilishi hamda ijtimoiy imkoniyatlarning cheklanishi kabi murakkab ijtimoiy hodisalarning ifodasidir. Shu sababli u jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy holati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ongini belgilovchi mezon sifatida ham qabul qilinadi.

Kambag'allikni kamaytirish uchun moddiy omillar bilan bir qatorda, insoniy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy yangilanish va ijtimoiy adolatni ta'minlash muhimdir. Insonning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy tenglik, axloqiy mas'uliyat va hamjihatlik muhitini shakllantirish eng samarali falsafiy yo'nalishlardan biridir.

Sotsiologik, aksiologik, antropologik va ekzistensial yondashuvlar kambag'allikning iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy va madaniy jihatlarini yaxlit falsafiy tizimda o'rganishga imkon beradi. Shu bois, kambag'allikka qarshi kurash nafaqat iqtisodiy islohot, balki insonni markazga qo'ygan falsafiy-ma'naviy yangilanish jarayoni hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет. 2007.- Б. 25-26.
2. Абдуллаев А. ва бошқалар. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. Тошкент: Фан ва технология. 2005.-Б. 5.
3. Платон. Сочинения в трех томах.Т. 2. – М.:Мысль. –С. 1970.-608.; Платон. Государство. М.: «Эксмо», 2018. – С. 37;
4. Афлотун. Қонунлар. Рус тилидан Урфон Отажон таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002, - Б. 95.;
5. Цицерон.Остарости,о дружбе, об обязанностях. –М.: Наука, 1974. -246 с.
6. Аристотель.Соченения в 4-х томах.Т.2. –М.:Мысль,1978. -704-бет.; Беседы Эпиктета.-М.: Ладомир,1997.-312с.;
7. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Халқ мероси, 1993.; Макиавелли Н. Государь. АСТ, Москва. 2009.
8. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд. – Бухоро: Бухоро фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти. 2009. – 176 б.;
9. Гегель Г.В.Ф.Работы разных лет. Т.2. -М: Мысль, 1971.- С 618.;
10. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд. – Бухоро: Бухоро фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр. 2009. – 143 б.